



«ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH» DAVLAT DASTURI.

Nurullaeva Oydin Ne'matillaevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son davolash ishi fakulteti

118-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli "Onalik va bolalikni muhofaza qilish" farmoni mazmun mohiyati va ijrosi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Sog'lom avlod, onalik va bolalik muhofazasi, irsiy kasalliklar, Edenburg shkalasi.

Onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lom farzand tug'ulishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratish, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga barham berish bugungi kunning dolzarb muommolaridan biridir. Kelajak avlod genofondini yaxshilash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi hech birimizga sir emas. Bunga yaqqol misol «2022-2026 yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish» to'g'risidagi Prezident qarori qabul qilinishi, shu jabhadagi mavjud muommolarga barham berish, erta yoshdagi onalar va bolalar o'limini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui desak mubolag'a bo'lmaydi. Qaror qabul qilinishi bilan yoshlarni nikoh qurishidan oldingi tibbiy ko'riklar bilan qamrab olinishi, eng chekka hududlarda ham zamon talablariga javob bera oladigan oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarini ishga tushurilishi, aholini tibbiy savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi, skrining markazlarining faoliyati samaradorligini oshirish, aholi orasida sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlari yanada kuchaydi. Bolalar, homilador hamda emizikli ayollar bepul vitamin va minerallar bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. Eng muhim dolzarb muammolardan biri bo'lgan, bolajonlarimizning erta o'limi va nogironlikka olib keluvchi, irsiy kasallik bilan tug'ilishini oldini olish uchun har bir homilador ayol, bepul skrining tekshiruvlari bilan 100% qamrab olindi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda eshitish nuqsonlarini erta aniqlashga qaratilgan audio skrining tadbirlari o'z natijalarini berishi sir emas. Shu tadbirlar tufayli bolajonlarimizda irsiy va turli nogironlikka olib keluvchi omillar erta aniqlanib, davolash muolajalari davlat tomonidan nazoratga olinganligi, ota-onalarga umid beradi. Davlat dasturiga qo'shimcha qilgan holda, shuni aytib o'tmoqchimanki, hozirgi kunga kelib irsiy kasalliklar soni yildan yilga ko'paymoqda. Bunga sabab birinchidan irsiy kasalliklarni aniqlovchi usullarning takomillashuvi bo'lsa, ikkinchidan atrof muhitni mutagen omillar bilan ifloslanishidir. Ma'lumotlarga qaraganda 5% bola irsiy kasallik bilan dunyoga kelar ekan. Hozirda 6000 mingdan ortiq irsiy kasalliklar aniqlangan bo'lib boshqa kasalliklardan farqi ularning sodir bo'lishi uzoq davom etadi. Har bir odamda kelajakda mutatsiyaga uchrashi mumkin bulgan 5-10ta gen buladi. Atrofimizda irsiy kasallikka chalingan, u yoki bu sabab bilan nogironga ayalangan qanchadan qancha insonlar bor, ularning ko'zidagi mung, ota-onalarni o'zida aybdorlik hissi bilan yashashligi biz uchun og'ir musibatdir. Homilador ayollarga munosabatimizni qabul qilingan qaror loyihalari bilan chegaralanib



qolmasdan,oilada yanada yaxshi tomonga o'zgartirishimiz,homiladorlikni asoratsiz o'tqazish va sog'lom avlod dunyoga kelishi uchun oilaning barcha a'zolari birdek ma'sulligini anglab yetishimiz zarur. Avvalo qizlarimizni ta'lim olishi uchun imkoniyatlar yaratish shu bilan birgalikda oilaviy munosabatlar va kelinlikka tayyorlash,kelin bo'lgandan keyin esa avlodimiz davomchisi sifatida qarashimiz lozim .Har bir homilador ayol homiladorligining 12 haftasigacha o'zi yashab turgan hududning oilaviy poliklinikasiga murojaat qilib,ginikolog huzurida bo'lib, ro'yhatga turish ,shifokor tavsiyasi bilan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tishi maqsadga muvofiq.Homilador ayolning oila a'zolari ham e'tiborli bo'lib bo'lajak onaga zarur shart sharoitlarni yaratib berishi,turli zararli odatlardan yiroq bo'lishi lozim.Homilador va emizikli ayolning kayfiyati tez o'zgaruvchanligini e'tiborga olishi kerak.Agar ayollarimizda doimiy kayfiyatning tez-yez o'zgarishi,o'zi va atrofdagilardan qoniqmaslik,yig'loqilik kuzatilsa depressiyani tasdiqlash uchun EDENBURG shkalasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

depressiyani aniqlash bo'yicha edingburg shkalasi

№	SAVOLLAR	AL
1	MEN KULISHIM VA NARSALARNING QIZIQARLI TARAFLARINI KURA OLIHIM MUMKIN	
A	BUNI HAR DOIMGIDEK BAJARA OLAMAN	0
B	HOZIR UNCHALIK KUP EMA	1
V	HOZIR OLDINGIDEK KUP EMASLIGI ANIQ	2
G	UMUMAN QILA OLMAYMAN	3
2	MEN MAMNUNIYAT BILAN YANGILIKNI KUTAMAN	
A	DOIMGIDEK	0
B	OLDINGIDAN KO'RA KAMROQ	1
V	OLDINGIDAN ANCHA KAM	2
G	KUTMAYMAN	3
3	NIMADIR KUTILGANDEK BO'LMASA ,MEN ZARURAT BO'LMASA HAM O'ZIMNI AYBLAYMAN	
A	HA,AKSARIYAT HOLLARDA SHUNDAY	3
B	HA,BA'ZAN SHUNDAY QILAMAN	2
V	UNCHALIK TEZ TEZ EMAS	1
G	YO'Q HECH QACHON	0
4	MEN HECH QANDAY SABABSIZ HAVOTIRLANAMAN VA TASHVISHLANAMAN	
A	YO'Q, UMUMAN HIS QILMAYMAN	0
B	DEYARLI HECH QACHON	1
V	HA,BA'ZAN	2
G	HA,KO'PINCHA	3
5	MEN ANIQ SABABLARSIZ QO'RQUV YOKI VAHIMANI HIS QILAMAN	
A	HA,TEZ-TEZ SHUNDAY BO'LADI	3
B	HA,BA'ZAN	2
V	YO'Q,UNCHALIK TEZ -TEZ EMAS	1
G	YO'Q,UMUMAN HIS ETMAYMAN	0
6	VAZIYATLAR OLDIDA OJIZMAN	
A	HA,AKSARIYAT HOLLARDA ULARGA UMUMAN TA'SIR O'TKAZA	3



	OLMAYMAN	
B	HA,BA'ZAN VAZIYATLARDAN OLDINGIDAN YAXSHI UDDASIDAN CHIQUAMAN	2
V	YO'Q,AKSARIYAT HOLLARDA VAZIYATLARNI O'ZIM BOSHQARISHGA MUVAFFAQ BO'LAMAN	1
G	YO'Q,MEN VAZIYATLARNI HUDDI OLDINGIDEK BOSHQARIB KELMOQDAMAN	0
7	O'ZIMNI SHUNCHALIK BAXTSIZ HIS QILAMANKI ,HATTO YAXSHI UHLAY OLMAYMAN	
A	HA,KO'PINCHA SHUNDAY BO'LADI	3
B	HA, BA'ZAN	2
V	UNCHALIK HAM KO'P EMAS	1
G	YO'Q,UZIMNI HECH QACHON BAHTSIZ HIS QILMAYMAN	0
8	O'ZIMNI G'AMGIN VA HORG'IN HIS QILAMAN	
A	HA,KO'PINCHA SHUNDAY BO'LADI	3
B	HA,BA'ZAN	2
V	UNCHALIK HAM KO'P EMAS	1
G	YO'Q,HECH QACHON O'ZIMNI G'AMGIM HIS QILMAYMAN	0
9	SHUNCHALIK BAHTSIZMANKI,HATTO BUNI O'YLAB YIG'LAYMAN	
A	HA,KO'PINCHA SHUNDAY BULADI	3
B	HA,TEZ-TEZ SHUNDAY BO'LIB TURADI	2
V	FAQAT BA'ZAN	1
G	YO'Q HECH QACHON	0
10	O'ZIMNI BIROR NARSA QILISH HAYOLLARIGA BORGANMAN	
A	HA,KO'PINCHA SHUNDAY BO'LADI	3
B	BA'ZAN	2
V	DEYARLI HECH QACHON	1
G	HECH QACHON	0
	UMUMIY BALL	

Har bir berilgan javob bal bilan baholanadi va yig'indisi jamlanadi .Agar ballar yig'indisi 8 dan kam bo'lsa -kasallik xavfi yo'q,8-12gacha bo'lsa depressiyaning o'rta xavfi, 13-dan yuqori bo'lsa depressiyaning yuqori xavfi deb belgilanadi. O'rta yoki yuqorigi xavf aniqlangan ayollar va uning oilasi bilan birgalikda suhbatlar,kerak bo'lsa davo muolajalari,psiholog,terapevt bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ushbu usul orqali biz ayollarimiz orasida,ayniqsa bir necha marta qiz farzand ko'rgan onalarimizning ruhiy kechinmalarini erta ilg'ab,o'ziga bo'lgan ishonchini orttira olishimiz va eng achinarli holat hisoblanadigan ayollarimizning o'z joniga qasd qilishlarini oldini olgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“Onalik va bolalikni muhofaza qilish” Davlat dasturi.
- 2.R.X.XOLIKOV,A.Q.QURBONOV,A.O.DAMINOV,M.V.TARINOVA TIBBIY
BIALOGIYA VA GENETIKA DARSLIK.



3. T.f.n N.I. ZAKIROVA t.f.n S.A UBAYDULLAEVA VA BOSHQALAR BIRLAMCHI TIZIMDA ONALAR VA BOLALAR BILAN ISHLASH BO'YICHA PATRANAJ HAMSHIRALAR ISHINI TASHKIL ETISH(TIBBIYOT XODIMLARI VA TIBBIY TA'LIM MUASSASALAR UCHUN MO'LJALLANGAN)